



**Shalola Muhiddinova**

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi

Tarix instituti tayanch doktaranti.

E-mail: [shalolamuhiddinova6@gmail.com](mailto:shalolamuhiddinova6@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15814350>

## **19-YUZYILLIKDA TURKISTONDA TIBBIYOT MASALALARINING INGLIZ TILLI “SAFARNOMA”LARDAGI IN’IKOSI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 19-yuzyillikda Turkistondagi tibbiyotning ahvoli ingliz tilli “Safarnoma”larni tahlil qilish asosida yoritilgan. Maqolada Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida uchragan kasalliklar turlari, ularning tabiatи, ularni davolash, dori-darmonlar va tabiblik kasbi bilan shug‘ullanuvchilar haqidagi ma’lumotlar o‘z aksini topgan.

*Kalit so‘zlar:* tibbiyot, kasalliklar, rishta, moxov, vabo, ko‘z kasalliklari, bod kasalligi, chechak.

**Kirish.** Ijtimoiy hayot masalalari haqida fikr yuritilganda sog‘liqni saqlash tizimi, kasalliklar va ularni davolash, shuningdek, dori-darmonlar masalasi barcha davrlarda ham dolzarb hisoblangan. Shuning uchun, Turkistonda 19-yuzyillikda mavjud bo‘lgan tibbiyot va uning holati haqida ko‘plab manbalarda ma’lumotlarni

uchratish mumkin. Bu manbalar ichida ayniqsa, ingliz tilli safarnomalarning qimmati yuqoridir. Bunday safarnomalar mualliflari boshqa mamlakatlardan tashrif buyurishgani bois Turkiston aholisiga xos turmush tarzi, dunyoqarash va urf-odatlar bilan birgalikda bu yerda uchraydigan kasalliklar, dori-darmonlar va tabiblar haqida bilish ular uchun qiziqarli bo‘lganini ularning bat afsil keltirilgan ma’lumotlaridan ham bilib olish mumkin.

Ma’lumki, 19-yuzyillikda Turkistonda mavjud uchta xonlik: Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklariga tashrif buyurgan elchi, harbiy, savdogar, sayyoh, josus va boshqa bir qator maqomlarda kelganlarning ko‘pchiligi o‘lka haqida turli xil maqsadlarda bat afsil ma’lumot to‘plaganlar. Ular yozib qoldirgan ma’lumotlarda aholining kundalik hayoti, kiyim-kechaklari, oziq-ovqatlari, diniy e’tiqodi va dunyoqarashi kabi masalalar bilan bir qatorda Turkistonda uchraydigan bir necha xil kasalliklarga ham keng o‘rin berilgan. Bunday safarnomalar mualliflari sirasiga Antoni Jenkinson (1558), Aleksandr Byorns (1832), Yujin Skayler (1873), Henri Lansdell (1882), Jorj Nataniel Kerzon (1887), Jorj Dobson (1888), Ole Olufsen (1890), Kolonel Messurier (1889), Annette Mikin (1903), V. Rikmer Rikmers (1912) kabi shaxslarni kiritishimiz mumkin. Ular o‘z asarlarida Turkistonda uchraydigan bir qator kasalliklar: rishta, moxov, pes, vabo, ko‘z kasalliklari, raxit, ekzema, sart kasalligi yoki afg‘on yarasi, buqoq, isitma, ich ketishi, bezgak, bod kasalligi, chechak, zahm va boshqa turli xil kasalliklarni tilga olishadi.

**Asosiy qism.** Manbalarda eng ko‘p tilga olingan kasallik rishta bo‘lib, u asosan, Buxoro shahrida keng tarqalgan. Bu kasallik manbalarda rishta, “drakunkulus” (gvineya qurti)[1:P.180.], “filarial medenensis”, “buxarinensis”[2:P.9; 3:P.264.] kabi nomlar bilan uchraydi. Rishta boshi silindr simon, ipdek qalinlikda va turli xil uzunlikdagi, oq rangli qurt sifatida tasvirlangan. Bu kasallik haqida dastlab

16-yuzyillikda Buxoroga tashrif buyurgan Entoni Jenkinson\* xabar bergan[4:P.83.]. Rishta asosan turg‘un suv havzalaridagi iflos suvni iste’mol qilish natijasida paydo bo‘lgan va, aksincha, oqar suvlari bor, tog‘li hududlarda bu kasallik uchramagan. Shuningdek, kasallik yoz oylarida, issiq havoda avj olgan. 20-yuzyillik boshlarida Turkistonga sayohat qilgan Annette Mikin\* ta’kidlashicha, odam o‘z hovlisidan oqadigan anhor suvidan va otlar yuvinadigan suv havzalaridan suv iste’mol qilishi bu kasallikni keltirib chiqargan[5:P.166.]. Ingliz zobiti Aleksandr Byorns\* ma’lumotlariga ko‘ra, 19-yuzyillik birinchi choragida Buxoroda aholining  $\frac{1}{4}$  qismi bu kasallikka chalingan[1:P.181.]. 19-yuzyillik oxiridagi ma’lumotlarga ko‘ra esa, har beshinchgi odam undan aziyat chekkan va bir odamda bir vaqtning o‘zida ikkitadan 10 tagacha, va hatto, 20 tadan 30 tagacha rishta bo‘lgan[6:P.196.]. Jorj Dobson\* 1889-yilda Buxoroda aholining yarmi rishta bilan zararlangani to‘g‘risida ma’lumot beradi[3:P.266.]. Ammo, O. Olufsen\* ma’lumotlariga ko‘ra, 19-yuzyillik oxirida Buxoro aholisining uchdan bir qismi bunday kasallikdan azoblangan[7:P.442.]. Turkistonga tashrif buyurgan chet ellik shifokor Doktor Heyfelder rishta kasalligining kelib chiqishi, ko‘payishi va davosi kabi masalalarga qiziqish bildiradi va mikroskop ostida suv tarkibini tekshirish natijasida rishta mikrobi ustida tajribalar olib boradi[3:P.268.]. Uning fikricha, sug‘urib olingan qurtlar beparvolarcha yerga otib yuborilgach, ular o‘rmalab suvga tushgan va bu mikroblar tarqalishiga sabab bo‘lgan. Hattoki, Buxoro amiri Amir Muzaffar\* ham bu kasallikka bir marotaba chalingani va

---

\* Entoni Jenkinson (1529-1610/1611) – ingliz sayyohi, savdo agenti va diplomat. 1555-yilda “Moskva savdo kompaniyasi”ga asos solgan. 1562-1564-yillarda Ivan Grozniyning ruxsati bilan Rossiya orqali Eron va O‘rta Osiyoga elchilik sayohati qilgan.

\* Annette Mary Budgett Meakin (1867-1959) ingliz sayyohi va muallif ayoli. U va uning onasi Trans-Sibir temiryo‘li orqali ilk bor Yaponiyaga sayohat qilgan ayollar hisoblanadi.

\* Aleksandr Byorns (1805-1841) – Ost-ndiya kompaniyasining siyosiy vakili. Buyuk Britaniya hukumati va Hindiston general-gubernatorining maxsus topshirig‘i bilan u Hindistondan Afg‘oniston, O‘rta Osiyo va Eronga yuboriladi. (1831-1833)

\* George Dobson – 1888-yilda Samarqandga tashrif buyurgan ingliz sayyohi. U sayohati asosan, bu yerda qurilgan temiryo‘l bilan bog‘liq edi.

\* Ole Olufsen (1865-1929) – daniyalik harbiy zabit va tadqiqotchi.

\* Sayyid Muzaffariddin Bahodirxon (1834-1885) – 1860-1885-yillardagi Buxoro amiri.

1883-yilda ajablanarli tarzda Moskvaga toj kiyish marosimiga tashrif buyurgani manbada ta'kidlanadi[3:P.265.].

Rishta bilan og‘rigan bemorlar ko‘p hollarda uning boshqa hududlarga ham tarqalishiga sababchi bo‘lganlar. Masalan, J.N. Kerzon\*ning ko‘rsatishicha, Buxorodan o‘z yurtiga qaytgan xivalikning tanasida 120 ta rishta bo‘lgan[6:P.196.]. Kasallik muayyan darajada tarqalgan hududlar jumlasiga esa Qarshi va Jizzax, shuningdek, Samarqandni kiritish mumkin edi. Buxoro shahrida esa bu kasallik keng avj olgan bo‘lib, bu yerdagi suvning ifloslanishiga sabab esa aholiga xizmat ko‘rsatadigan do‘konlar, choyxonalar, meva sotuvchilar, sartaroshxonalar Buxorodagi Labihovuz atrofida joylashgan bo‘lib, u yerdidan chiqadigan chiqindilar birin-ketin mahalliy aholi yuvinib, suv ichadigan suvga tushgan. Sartaroshxonalardan rishta kasalligida qo‘llangan jarrohlikdan keyin sizib chiqadigan qon ham hovuzga tushgan[7:P.448.]. Kasallik ba’zan bir yilgacha o‘zini namoyon qilmagan, shu sababli, Buxoroda bo‘lgan xorijliklar o‘z vataniga qaytgach, ancha vaqt o‘tib ham (bir oydan 12 oygacha), kasallik belgilarini o‘zlarida his qilganlar. Masalan, afg‘onlar Buxorodan Kobulga qaytgach, o‘zlarida bu kasallik alomatlarini sezganlar[1:P.181.]. Shuningdek, bir rus zobiti Buxorodan qaytgach 9 oy o‘tib Toshkentda ekanligida terisining 30 ta joyidan rishta chiqqan[8:P.179.].

Bu kasallikda teri ostida o‘rnashgan qurtlarni chiqarib tashlash ham o‘ziga xos jarayon bo‘lgan, qurt bir joyda halqa bo‘lib joylashsa, igna tiqib uning o‘rtasidan tortgan holda chiqarib tashlangan yoki dastlab qurtning boshi ezib tashlangan. Agar u tanaga chuqur kirgan bo‘lsa, bu jarayon qiyinlashgan. Qurtlar uzunligiga ko‘ra esa 3 yoki 4 span\* bo‘lgan. Rishtani sug‘urib olish bilan sartaroshlar shug‘ullanishgan va bu katta mahorat bilan birga sinchkovlik talab qilgan. Chunki, agar rishta sug‘urib olinayotgan paytda uzilib ketsa, u isitma keltirib chiqargan va yanada ko‘payib

\* George Nathaniel Curzon (1859-1925) – Lord Kerzon nomi bilan tanilgan, Britaniya davlat arbobi, konservativ siyosatchi, tadqiqotchi va yozuvchi.

\* 22.9 santimetrga teng inglez o‘lchov birligi

ketgan[5:P.166.]. Rishtani mahalliy aholi bir qancha rivoyatlar bilan, masalan, Ayyub payg‘ambar ham rishta bilan kasallanganligi haqidagi qarashlar bilan bog‘lashga harakat qilishgan[7:P.443.].

Turkistonda uchraydigan yana bir kasallik turi moxov bo‘lib, unda teri qurigan va qichishgan, tanadagi tuklar to‘kilib, tirnoqlar va tishlar ko‘chgan. Bunday kasallik Samarqand, Miyonqol, Shahrisabz va Hisorning qo‘shni hududlariga tarqalgan bo‘lib, bunga davo choralar bo‘limgan. Bu kasallikka chalinganlar boshqa odamlardan ajratilgan holda alohida mahallada yashashgan va tilanchilik bilan shug‘ullanishgan. Manbalarda ular yashaydigan qishloq va mahallalar sirasiga Mahon qishloqlari kirib[5:P.169.], jumladan, Ishkashim\*dagi Nut qishlog‘i ularning muntazam yashaydigan hududi bo‘lgan[7:P.445.]. Buxoroda ham ularning o‘z mahallalari, masjidlari, bozorlari, hammomlari va madrasalari bo‘lgan. Aholi orasida pes deb nomlanuvchi kasallik ham moxov kabi teri kasalligi turlaridan biri bo‘lib, unda teri qo‘rg‘oshin rangga kirgan va butun tanada dog‘lar paydo bo‘lgan. Bu kasallik yuqumli bo‘lib, o‘lim bilan tugagan. Mahalliy aholi ko‘pincha pes va moxov kasalliklarini bir-biri bilan adashtirgan\*. Pes va moxov kabi kasalliklarga chalinganlar Guzar-i-Peson deb ataladigan Eski Buxoroning shimoli-sharqida joylashgan mahallada yashashgan[7:P.446.]. Manbalarda Samarcandning Registon maydoni va Shohizinda masjidi yonida barmoqlari yo‘q moxov kasaliga chalinganlar sadaqa so‘rab o‘tirishlari aytib o‘tiladi. Bundan tashqari, ular tashrif buyuruvchilarining otini xaroba masjidda ushlab turishgani uchun ham yaxshi pul ishlashgan[5:P.169-170.]. Moxovga chalinganlarga mahalliy aholi bilan aloqa qilish cheklanmaganligi, ya’ni, ular ko‘chalarda bemalol tilanchilik qilishgani sababli kasallik tarqalishining oldi olinmagan.

\* Afg‘onistodagi shahar. Badahshon bilan chegara hudud hisoblanadi.

\* Odatda tibbiyot tilida “vitiligo” deb ataladigan pes kasalligi odamdan odamga yuqmaydi va o‘limga olib kelmaydi. Bu yerda boshqa turdagи kasallik to‘g‘risida fikr yuritilgan bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, vabo\* kasalligi tarqalgan holatlar ham mavjud bo‘lgan. Manbalarning ko‘rsatishicha, Turkistonda 1832, 1848 va 1849-yillarda vabo tarqalgan[9:P.148.]. Bu kasallik Hindistondan Sharqiy Yevropaga qadar asta-sekin kirib kelgan, Kobulda 1 yil davom etib, keyin esa Hindikushni kesib o‘tib, Balx va Qunduzni xarob qilgan. Vabo shunchalik tez tarqalib, Buxoro, Qo‘qon va Xiva xonliklari hududiga va shuningdek, Orenburg va Astraxangacha borgan. Lekin, bu paytda vabo kasalligiga qarshi hech qanday davo choralarini ko‘rish imkonи bo‘lmagan[1:P.183.]. Keyinchalik, 1872-yilda Jizzaxda tarqalgan vaboning ko‘lami juda katta edi. U tez orada Samarqand, Shahrisabz, Hisor va Amudaryo janubiga, Kattaqo‘rg‘on va Nurotadan Buxoro va Xivagacha tarqalgan; sharqda esa O‘ratepa va Qo‘qon, shimolda Toshkentgacha yetib borgan[9:P.148.].

Turkistonliklar bunday yuqumli kasalliklarga qarshi davo choralarini ko‘rishga ojiz qolishsada, uning tarqalib ketishining oldini olish uchun bir qancha usullarni qo‘llashgan. Masalan, ushbu kasallik yon-atrofga tarqalganidan xabardor topgan chorvador aholi o‘zi yashab turgan ovulni tashlab, boshqa joyga ko‘chishgan. O‘troq hayot kechiruvchilar esa kasalga chalingan kishilarning idishlari va xonasini alohida qilishgan va yashayotgan uyini tutunga to‘ldirib zararsizlantirganlar[10:46-b.].

Turkiston aholisi orasida terining qurishi natijasida kiprik va qoshlarning to‘kilishi, teri ajinli va sarg‘ish rangga kirishi, shu bilan birga ko‘z kasalliklarining keng tarqalganligini aytish mumkin. Buxoroda ko‘zi ko‘r, bir ko‘zi ko‘rmaydigan va boshqa xil ko‘z kasalliklariga chalinganlar ham bo‘lgan. Taxminan har o‘ninchи kishining ko‘zi kasalangan bo‘lib, aholining  $\frac{1}{4}$  qismining bir yoki ikkala ko‘zi ko‘rmagan. Ko‘z kasalliklariga, shuningdek, shox pardadagi dog‘lar va trixiaz\* ham kirgan. Ko‘z kasalliklari ko‘p bo‘lishiga havoning haddan tashqari issiqligi, quruqligi, yorqin nur va tuz aralash chang sabab bo‘lgan. Turkistonliklar ko‘zlarini davolash

\* Vabo – ingichka ichakning zararlanishi, intoksikatsiya, umumiy ahvolning og‘irlashuvi va organizmning suvsizlanishi bilan kechadigan o‘tkir infektion kasallik.

\* Kipriklar ichkariga qarab o‘sib, shox pardaga ishqalanadi.

uchun ko‘k choy va iliq sut bilan yuvishgan[7:P.444-445.]. Ko‘zi ko‘rmaydigan odamlar ham tilanchilik qilishgan, ba’zilari esa jismoniy mehnat qilib kun ko‘rishgan va hammomlarda “uqalovchi” (shampunlovchi)\* bo‘lishgan. Shuningdek, ular temirchilik va chilangarlik ustaxonalarida ham mehnat qilishgan[7:P.445.].

Keng tarqalgan kasalliklardan yana biri bod kasalligi (revmatizm)\* edi va u Balx va Buxoroda ko‘p uchragan. Bu kasallikning keng tarqalish sabablari ko‘p bo‘lib, ular sirasiga yalang yerda, maydonda va tekis tomlarda uplash kabilarni ingliz mualliflari ko‘rsatib o‘tadilar[7:P.447.]. Aholi vakillari, ayniqsa, erkaklar asosiy vaqtlarini ko‘chada o‘tkazishgan yoki asosan, dehqonchilik bilan shug‘ullanishganligi sababli bu kasallikka chalinishgan.

Turkistonda bolalar orasida tarqalgan bir qator kasalliklar to‘g‘risida ham ingliz tilli mualliflar to‘xtalib o‘tadilar. Ulardan biri raxit kasalligi\* bo‘lib, u Buxoroda juda keng tarqalgan edi. Uni tuzatish borasida buxorolik tabiblar ko‘plab sa’y-harakatlarni amalga oshirsalarda, ularning muolajalari doim ham kutilgan natijani bermagan. Aleksandr Byorns ta’kidlashicha, Buxoro qo‘shbegisi Hakimbiy\*ning farzandlaridan biri raxit kasalligiga chalingan bo‘lib, uning og‘ir ahvolda bo‘lgani va kechqurun ular orasidagi shifokorlardan biri bosh vazir iltimosiga ko‘ra bolani tekshirib ko‘radi[12:P.316.]. Shuningdek, bolalar orasida uchraydigan kasalliklar sirasiga ekzema\* ham kirgan. H.Lansdell boshi ekzema bilan qoplangan buxorolik bola

\* Bu yerda muallif xatoga yo‘l qo‘yan bo‘lishi mumkin. Chunki, Buxoro amirligidagi hammomlarda shampunlovchi kasbi bo‘lgani haqida manba va adabiyotlarda ma’lumotlar keltirilmagan. Bu kasbni uqalovchi yoki sovun surtuvchi sifatida talqin qilish mumkin.Tadqiqotchi X.Jumanazarov ma’lumotlariga ko‘ra hammomlar davolash muassalari vazifasini o‘tagan va bu yerda bemorlar uqalash va giyohlardan tayyorlangan damlamalarni qabul qilish orqali sog‘liklarini tiklashgan. Bu haqda qarang: Жуманазаров Х.С. Туркистанда миллий тиб анъаналари ва тибиёт тарихи ( XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари доктори (DSc) даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2024. 77-78-бетлар.

\*revmatizm-biriktiruvchi to‘qimaning keng tarqalgan yallig‘lanishi bilan tavsiflanadigan kasallik, bunda, asosan, yurak, bo‘g‘imlar va boshqa a’zolar yallig‘lanadi.

\* Raxit – organizmda D vitamin yetishmasligi tufayli fosfor-kalsiy almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik.

\* Muhammad Hakimbiy qo‘shbegi – (1769-1840) Buxoro amirligining harbiy va davlat arbobi. 1812-1837-yillarda bosh vazir (qo‘shbegiyi bolo)

\* Ekzema – (yun.-pufakcha, toshma)- terining allergik kasalligi.

to‘g‘risida ma’lumot bergen[13:P.145.]. Lekin, uni davolash to‘g‘risida hech qanday ma’lumotlar uchramaydi.

20-yuzyillik boshidagi manbalarda “sart kasalligi” (boshqa nomlari “Afg‘on atirguli”, “Fors go‘zalligi dog‘i”, ”Aleppo tugmasi”, ”Afg‘on yarasi”, ”Afg‘on og‘rig‘i”) haqida ham aytib o‘tiladi. Bu kasallik teri kasalligi bo‘lib, yuzda yara paydo bo‘lgan. Bu yara ayniqsa Ashxobodda keng tarqalgan bo‘lib, hatto bu yerdagi rus aholisida ham uchragan. Kasallik qaynatilmagan suvda yuvinishdan kelib chiqadi, deb qaralgan va 12 oy davom etgan. Shuningdek, boshqa bir manbada bu kasallik “pashsha xo‘rda” yoki “qurt yegan” deb nomlanib, bolalar orasida keng tarqalgani va teriga chuqur kirib borishi ta’kidlangan. Mahalliy aholi esa buni davolashda mohir bo‘lib, qo‘rg‘oshin sirkasi yordamida bemor butkul sog‘ayib ketganligi aytildi[9:P.148.]. Ammo, Annette Meakin ma’lumotiga ko‘ra, Qo‘qon xonligida “sart kasalligi”ga yo‘liqqan bemor Buxoroda oliy tibbiyat maktabida ta’lim olgan va Bombeydan keltirilgan tibbiyat kitoblarini o‘qigan mahalliy mulla tomonidan davolashga harakat qilingan. U sutni yerga ikki kun davomida ko‘mib qo‘ygan hamda uni un va dorivor o‘simplik bilan aralashtirgan. Uni bemorning yuziga qo‘yib, bir necha joydan pichoq bilan teshadi. Ammo bu muolaja natija bermaydi va bemor vafot etadi[5:P.167.].

Qo‘qon xonligi hududida, shuningdek, buqoqdan aziyat chekadiganlar ham juda ko‘plab topilgan. Buqoq iyak ostida paydo bo‘ladigan shish bo‘lib, ko‘pincha bemorning boshidek kattalikda bo‘lgan. Kasallik sababi sifatida Turkistondagi madrasa mudarrislari irsiyatni aytishsada, rus shifokorlari buni qo‘shni qorli tog‘lardan oqib keladigan suvlarni ichish va tuproqdagi o‘ziga xoslik bo‘lib, bu anhor suvlariga ta’sir qilishini ta’kidlashgan. Muallif Annette Meakinning ta’kidlashicha, buqoq magniy-ohaktoshli tuproqda yashaydigan odamlar orasida uchragan. Buqoq bilan kasallanganlarni bozor va ko‘chalarda uchratish mumkin bo‘lgan[5:P.168.]. Umuman olganda, iqlimning nam bo‘lishi omili va yod moddasining yetishmasligi bunday kasallikning kelib chiqishiga zamin hozirlagan. O.Olufsen o‘z asarida bu kasallikni

bronxosel nomi bilan keltiradi va bu o‘rtacha umr ko‘rish darajasini sezilarli darajada qisqartirishini ta’kidlab o‘tadi[7:P.446.].

Bu davrda ichki kasalliklar ham ma’lum bir hududlarda tarqalgan edi. Jumladan, isitma va ich ketish kabi kasalliklar Toshkentda uchragan. Bu isitmaning rivojlanishiga yordam beradigan iqlim - ichak kanalining kataral yallig‘lanishi bilan izohlanadi[13:449-450.].

Chechak kasalligi\* ham aholi orasida keng tarqalgan. Buxoroda ham bu kasallik keng avj olgan bo‘lib, bunga iqlim sharoiti va gigiena qoidalariga to‘liq amal qilmaslik kabi holatlar sabab bo‘lgan. Shu bilan birga aholining hovuz va havzalardagi turg‘un suvlarda cho‘milishi yoki oqar suvlarda cho‘milsalarda, bu suvlarning loy bo‘lishi kabi omillar sabab bo‘lgan. Chunki suvlar filtrlanmasdan turib ichishga va cho‘milishga yaroqsiz bo‘lgan[7:P.444.]. Shuningdek, bu yerda bezgak\* bilan og‘rib isitmalayotgan odamlar ko‘p bo‘lgan. Xinin dori vositasi 5 ta don shaklida bemorga berilgan, lekin uning boshqa yot ta’sirlari tufayli bu dori vositasiga nisbatan norozilik kuchaygan[5:P.169.]. Bundan tashqari, O.Olufsen ma’lumotlariga ko‘ra, Buxoro shahrida aholi tomonidan “lapsha” deb nomlanuvchi kasallik turi uchragan. Bu kasallikka yo‘liqqanlar mehnatga bo‘lgan layoqatini yo‘qotishgan va yotib qolishgan. Oxir-oqibat bu kasallik o‘lim bilan tugagan. Bu o‘pka kasalligi bo‘lib, ayniqsa ayollar orasida ko‘p kuzatilgan. Chunki, ayollar ochiq havoda kamdan-kam holatda yurganlar. Bundan tashqari, ular yalang‘och yerda, shamollatilmaydigan uylarda yashashgani uchun bu kasallik bilan og‘riganlar[7:P.446.]. Aholi orasida “sibilisha” deb nomlanuvchi kasallik turi ham mavjud bo‘lib, u yarim yil davomida quşish bilan kechgan va o‘lim bilan yakunlangan[7:P.446.]. Safarnomalardagi ba’zi bir ma’lumotlar bir-biriga mos kelmaslik holatlarini ham kuzatish mumkin. Masalan, H.Lansdell 19-yuzyillik oxirida Buxoroda keng tarqalgan kasalliklar qatorida zahm kasalligini sanab o‘tgan bo‘lsa[13:P.145.], O.Olufsen esa zahm kasalligi Buxoroda

\* Chechak, suv chechak, chin chechak – o‘tkir yuqumli teri kasalligi.

\* Bezgak – chivinlar tomonidan tarqaladigan parazit tufayli yuzaga keladigan jiddiy kasallik.

ko‘p uchramasligi, balki bu kasallik Xivada keng tarqalganini o‘z asarida keltiradi[7:P.446.].

Tibbiyot haqida so‘z ketganda, Turkistonda foydalanilgan dori-darmonlar turlari haqida ham to‘xtalish maqsadga muvofiqidir. Buxoroda o‘z mahalliy dorilari bilan bir qatorda, chet eldan keltirilgan dorilar ham mavjud edi. Mahalliy dorilardan biri qo‘y go‘ngidan ajratilgan yog‘ bo‘lib, bu paylar shikastlanishi, ko‘karishlar va qoramollar lat yeganda ishlatilgan[1:P.184.]. Buxoroda masjid mullalari qurigan ayiq yuragi va ilon shoxi deb atalgan vositalar sotganlar. Bunday vositalar bilan kasallik keltirib chiqaruvchi yovuz ruhlarga qarshi kurashish kerak deb hisoblaganlar[7:P.450.]. Mahalliy dori vositalari bilan bir qatorda 19-yuzyillikda chet davlatlardan olib kelinadigan dori-darmonlar ham qo‘llangan. Jumladan, xinin (bezgakka qarshi dori vositasi) Konstantinopoldan keltirilgan[12:P.289.]. Bundan tashqari zahmga qarshi simob, abort dori-darmonlari ham Yevropadan keltirilgan. Yujin Skayler o‘z asarida ta’kidlashicha, Doktor Heyfelder Turkistonda 226 ta o‘simglik dorilarini aniqlagan. Bulardan 210 tasi buyuk arab shifokori Ibn Baytar<sup>\*</sup> zamondoshlariga ma’lum bo‘lgan, 172 tasi Dioskrides<sup>\*</sup> va Galen<sup>\*</sup>ga ma’lum bo‘lgan. 226 ta dorining 12 tasi Xitoydan, 62 tasi Hindistondan, 71 tasi yovvoyi holda o‘sishi va Toshkentda yetishtirilishi, 50 tasi Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon va Afg‘onistondan olib kelinishi aytildi. Kelib chiqishi jihatdan esa 7 tasi Eron, 6 tasi arab va turk, 1 tasi Misr, 4 tasi Yevropaga borib taqalishi ta’kidlangan[9:P.150.].

Turkistonda, asosan, Buxoroda tabiblik vazifasini bajaradigan kishilarga qon oluvchilar, tish tortuvchilar, tabiblar, mullalar va rishta oluvchilar kirib, ular asosan ochiq havoda, ya’ni bozorlarda o‘z ishlarini bajarishgani tufayli ko‘plab odamlar ularni tomosha qilishi mumkin bo‘lgan[7:P.441.]. Aslida, bozorlar bemorlar to‘plash uchun va xalq orasida nom qozonish uchun asosiy joylar bo‘lgan. Shu sababli,

\* Ibn al-Baytar (1197-1248) – O‘rta asrlarda yashagan shifokor, botanik, dorishunos va olim.

\* Padanius Dioskorides – 40-90-yillarda yashagan yunon tabibi, dorishunos va botanik olimi.

\* Klaudis Galen 129-210-yillarda Rim imperiyasida yashagan tabib va jarroh.

safarnomalardagi ma'lumotlarga tayangan holda davolash ishlari faqat ochiq havoda yoki ba'zida tabiblar uylarida o'tkazilgan degan xulosaga kelish mumkin. Ammo, X. Jumanazarov tadqiqotlari orqali Turkistonda madrasalar yonida shifoxonalar bo'lganligi va talabalar u yerlarda amaliyot o'tash orqali tibbiy ma'lumot olganligini bilib olish mumkin[10:20-b.]. Turkistonda tibbiy ma'lumot olish uchun muassasalar bo'lganligi ham safarnomalardagi ma'lumotlardan ma'lum. Jumladan, Annette Meakinning ma'lumotlariga ko'ra, Buxorodagi Oliy tibbiyot mакtabida ta'lim olgan tabiblar katta maosh olishgan, aholi orasida ilmli inson sifatida hurmat qilingan va ishonilgan[5:P.167.].

Turkistonda hammomlar ham davolash muassalari bo'lib, bu yerda turli muolajalar o'tkazilgan. Ular jumlasiga ukalash muolijasini kiritish mumkin. O.Olufsen ma'lumotlariga ko'ra, hammomlarda amalga oshiriladigan "shampunlash" (aslida sovun yordamida uqalash bo'lishi mumkin) Buxoroda qadimgi davo usuli bo'lib, bu muolaja uylarda ham revmatizm va oyoq-qo'llarning uvishishiga va jismoniy mashqlar yetishmovchiligini bartaraf etishda qo'llanilgan[7:P.441.].

19-yuzyillik ikkinchi yarmida yevropalik shifokorlar Turkistonga kirib kelgan bo'lishiga qaramay, aholi ulardan yordam olishni xohlamagan. Chunki, ular g'ayridin bo'lganligi sababli aholida ularga nisbatan ishonch past bo'lgan. Xuddi shunday, ayollar ham yevropalik tabibga kamdan kam holatda uni tekshirishiga ruxsat bergenlar[7:P.441.]. Chunki, bu islom diniga zid xususiyat edi. Turkistonlik tabiblar zamonaviy davolash usullaridan xabardor bo'lmasalarda, ular yaxshi bilimga ega bo'lishgan va tashxis qo'yishda o'ziga xos yondashuvga ega bo'lganlar. Masalan, "Tuxfat ul mo'minin" nomli tibbiy kitobga asoslanib tabib bemorning 4 ta mijozdan biriga taalluqli ekanligini aniqlaydi. Dastlab, bemorning umumiyl holati o'r ganilgan. Keyin bemorga mos kukun va qaynatma shaklidagi dori vositasi berilib, bemorga uni qancha miqdorda qabul qilish va parhez haqida ma'lumot berilgan[9:P.149.]. Umuman olganda, parhez kasalliklarni davolashda eng muhim usul bo'lib, turkistonlik tabiblar deyarli barcha kasalliklarni davolashda parhezdan foydalanishgan.

Shuningdek, bozorlarda o‘z ko‘chasiga ega bo‘lgan va kezib yurgan dori sotuvchilarda bir vaqtning o‘zida barcha kasalliklarga qarshi kukun, tomchi va o‘tlar shaklida dori-darmonlar bo‘lgan. Ularning ko‘pchiligidan to‘g‘ri foydalanilsa yaxshi samara bergen. Ammo, dori sotuvchilar kasallikning tabiatini aniqlay olmasliklari sababli ular bergen dori ba’zan hech qanday ta’sir qilmagan yoki zarar keltirgan[7:P.449.].

Tish tortuvchilar ham bozorlarda faoliyat yuritib, o‘z yordamchilariga ega bo‘lishgan. Turkistonda zamonaviy stomatalogiya bo‘lmaganligi sababli tish tortish oxirgi chora sifatida qo‘llanilgan. Bemor yerga o‘tirgan va yordamchi uning boshini o‘z tizzalari orasiga siqib turgan. Usta yordamchining orqasida turgan va qo‘li uning yelkasidan kesib o‘tgan. U qisqich bilan bemorning tishini sug‘urib tashlagan. Bu o‘ta og‘riqli jarayon bo‘lganligi uchun bemorning baqirgan tovushiga qiziqib ko‘plab odamlar to‘planishib, tomoshabin bo‘lishgan[7:P.449.].

19-yuzyillik oxirida Buxoro amirligiga tashrif buyurgan O.Olufsenning takidlashicha, o‘troq aholi, ayniqsa, shaharlilar diniy xurofotlarga berilgani, aksincha shaharlardan ancha uzoqda yashovchi ko‘chmanchi turmush kechiradiganlar esa, yevropalik shifokorlarga ko‘p murojaat qilishganini ta’kidlaydi. Buxoroda kasal bo‘lgan odamlar mullalarga murojaat qilishgan va shaharlarda mullalar, dori sotuvchilar va tabiblar bemorlarning yevropaliklarga murojaat qilishlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun harakat qilishgan. Buxoroda, shuningdek, avliyolarga ishonish ham kuchli bo‘lib, bemorlar avliyolar qabriga borib, turli amallarni bajarib, tuzalishiga ishonishgan. Masalan, tananing kasallik o‘rnashgan joyiga mulla bergen bir nechta qog‘oz parchalarini yopishtirishgan va kiyimining bir bo‘lagi bilan tanadagi zararlangan joyga tegib, lattani daraxt yoki avliyo qabriga qo‘yishgan. 19-yuzyillik boshida Buxoroga tashrif buyurgan Mir Izzatulloh\* ma’lumotlariga ko‘ra, Buxoro

---

\* Mir Izzatulloh – 1812-yilda Hindistondagi ingliz koloniyasining taniqli vakili Vilyam Murkroft topshirig’iga ko‘ra Qo’qon xonligiga, Markaziy va O’rta Osiyonning qator yerlariga tashrif buyurgan vakil.

shahridagi Sallohxona darvozasi<sup>\*</sup> yonida Boboyi Porado'z<sup>\*</sup> qabri joylashgan bo'lib, uning changi yaraga surtilsa, bir zumda shifo topish mumkinligiga ishonilgan[14:P.61.].

Jarrohlik muolajasiga ham odamlar qarshi bo'lishgan va yevropalik shifokorlar, asosan, jarrohlik amaliyotini qo'llaganlari bois aholi mahalliy tabiblarga murojaat qilishni afzal ko'rishgan. Chunki, agar biror tana a'zosi kesib tashlangudek bo'lsa, qiyomat kunida inson o'sha tana a'zosiga zor bo'ladi deb o'ylashgan. Agar oyoq kesilsa, qiyomat kuni tik turolmasliklariga ishonishgan[7:P.442.]. Mahalliy tabiblardan biri esa, oyog'i singan bemorning oyoq atrofiga yog'och shinalar qo'yib, mahkam bog'lab, tuxum sariq'i va moy aralashtirib qumga o'rab qo'yadi va bemorga og'riq qoldiruvchi dorilar beradi. Bemor tuzalib ketadi[5:P.170.].

Ba'zi bir kasallikkarni davolashda yevropalik tabiblar ham ojiz qolishgan. Masalan, rishtaga chalingan yevropaliklar Buxoroga qaytib, mahalliy sartaroshga murojaat qilishga majbur bo'lishgan[7:P.443.]. Qon oluvchi tabiblarga asosan, bosh og'riganda murojaat qilinib, qon asosan boshning og'rigan qismidan, qo'l va oyoqlardan olingan. Qon olish har bir oyda bir marotaba bajarilgan[7:P.448.].

Buxoroda turli xil sehrli kuchlarga, buyumlarga va duolarning shifobaxshligiga ishonch kuchli bo'lgan. Mullalar qog'ozga Qur'onдан parcha va duolarni yozib, ipga o'rab, uni og'rigan joyga bog'laganlar[7:P.448.]. Turmushga chiqqan ayollar esa sutining yaxshi va foydali bo'lishi uchun ko'kragiga duo yozilgan do'ppisifat narsa kiyib yurganlar. Shuningdek, tumorlar va popuklardan, ko'k lapis lazuri va firuza toshidan tumorlar, ayniqlsa, bolalarni kasallikkardan himoya qilish uchun ishlatilgan[7:P.449.]. Islom dini va shariat qonun-qoidalariga eng qattiq rioya qilishga harakat qiluvchi buxoroliklar orasida ham qadimgi ajdodlar dini zardushtiylikka nisbatan ishonch xalq orasida saqlanib qolgan. Buxoroda bemirlarni olov ustidan

\* Sallohxona darvozasi-Buxoro amirligida mavjud bo'lgan 11 ta darvozalardan biri. Uning tashqarisida amir askarlari joylashgan bo'lib, bu yerda 1920-yilga qadar harbiy mashqlar o'tkazilgan.

\* Boboyi Porado'z (842-925)- hazrat Boboyi Porado'z (yamoq tikuvchi) olim va shayx bo'lgan. Uning maqbarasi Sallohxona darvozasi tashqarisida joylashgan.

sakratuvchi keksa ayollar mavjud bo‘lib, ular mullalarning g‘azabiga qaramay, zardushtiylik davridan qolgan bunday odatlarni amadga oshirishda davom etganlar[7:P.450.].

**Xulosa va takliflar.** Turkistonda bir necha xil kasallik turlari tarqalgan bo‘lishiga qaramay, bu yerda an’anaviy davolash usullari va dori-darmonlar ham mavjud edi. Ammo, Turkistonda tibbiy savodxonlik avvalgi davrlarga nisbatan ancha pasayishi kuzatilgan, buni turli kasbdagi tibbiyotga aloqador bo‘lmagan shaxslarning tabobatni o‘zlariga kasb qilib olganliklaridan ko‘rish mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, ba’zi davo choralar foyda bergen bo‘lsa, ba’zilari hatto o‘limga olib kelishi mumkin edi. Quyidagi masalalar bo‘yicha batafsil ma’lumotlarni ingliz tilli mualliflar asarlarida ko‘rish mumkin. Ularda ijtimoiy hayotning deyarli barcha jabhalari, shu jumladan, tibbiyot masalalari ham qamrab olinganiga qaramay milliy tabobatni past darajada baholash, uning tub ildizlarini bilmaslik, Yevropa tibbiyotiga xayrixohlik holatlari ko‘zga tashlanadi. Chunki, zamonaviy Yevropa tibbiyoti asosi aslida qadim Turon hududlariga borib taqalishini ko‘plab manbalar orqali bilib olish mumkin. Masalan, Ibn Sino asarlari Yevropada 16-yuzyillikda chop etilib, ulardan foydalanish orqali u yerda tibbiyot yanada takomillashgani ma’lumdir. Bu davrda Turkistonda tibbiyotning ahvoli avvalgi davrlarga nisbatan pasayganligi ham ma’lum darajada haqiqat hisoblansada, lekin ko‘plab kasalliklarning davosi va davolash muassasalari ham ma’lum edi. Shuning uchun, ingliz tilli mualliflar asarlaridagi ma’lumotlarga to‘la tayanmasdan, ularni milliy manbalar bilan solishtirgan holda tahlilga tortish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Burns, Alex. Travels into Bokhara; being an Account of a Journey from India to Kabul, Tartary and Persia // London. John Murray, Vol. II. 1834. P. 180.
2. W. Rickmer Rickmers. The Duab of Turkestan // Cambridge University Press. 1913. P. 9.

3. George Dobson, Russia's Railway into Central Asia Notes of A Journey From St. Petersburg to Samarkand, W. H. Allen & Co.,13, London: Waterloo Place and At Calcuta, 1890.P. 264.
4. Jenkinson A. Early voyages and travels to Russia and Persia. Vol I. Burt Franklin, Publisher New York. New York. 1968. P. 83.
5. Annette M. B. Meakin. In Russian Turkestan: A Garden of Asia and Its People // G. Allen, 1903. P. 166.
6. Curzon N. George. Russia in Central Asia // London, Longmans, Greens and Co., 1889. P. 196.
7. Olufsen O. The emir of Bokhara and his Country: journeys and studies in Boukhara (with a chapter on my voyage on the Amu Darya to Khiva) // London: William Heinemann, 1911.P. 442.
8. Colonel a. Le Messurier. From London to Bokhara and ride through Persia. London. Richard Bantley and son. 1889. P. 179.
9. Schuyler, Eugene, Turkistan: Notes of a Journey in Russia, Turkistan , Kokand, Bukhara and Kuldja. Vol I. New York: Scribner, Armstrong & CO. 1876. P. 148.
10. Jumanazarov X. Turkistonda tibbiyot tarixi (19-yuzyillik so‘ngi-20-yuzyillik boshi). “Fan” nashriyoti. Toshkent-2024. 46-bet.
11. Жуманазаров Х.С. Туркистанда миллий тиб анъаналари ва тиббиёт тарихи ( XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари доктори (DSc) даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2024. 77-78-бетлар.
12. Burns, Alex. Travels into Bokhara; being an Account of a Journey from India to Kabul, Tartary and Persia // London. John Murray, Vol. I. 1834. P. 316.
13. Lansdell H. Russian Central Asia including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv // London : Sampson Low, Marston, Searle and Rivington. Vol. I. 1885. P. 145.
14. Mir Izzatulloh “Ahvali Safari Buxoro” - “Travels in Central Asia” Calcutta: Printed at the Foreign Department Press, Council House Street. 1872. P. 61.

## THE REFLECTION OF MEDICAL ISSUES IN TURKESTAN IN THE 19TH CENTURY IN ENGLISH-LANGUAGE "TRAVELOGUES"

**Abstract.** This article examines the state of medicine in Turkestan in the 19th century based on an analysis of English-language "Travelogues". The article provides information about the types of diseases encountered in the Bukhara Emirate, Khiva and Kokand Khanates, their nature, treatment, medicines and people engaged in the medical profession.

**Keywords:** medicine, diseases, "rishta", leprosy, plague, eye diseases, rheumatism, smallpox.

## ОТРАЖЕНИЕ МЕДИЦИНСКИХ ПРОБЛЕМ ТУРКЕСТАНА В XIX ВЕКАХ В АНГЛОЯЗЫЧНОГО «ПУТЕВЫЕ ЗАМЕТКИ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается состояние медицины в Туркестане в XIX веке на основе анализа англоязычного «Путевые заметки». В статье дается информация о видах болезней, встречавшихся в Бухарском эмирате, Хивинском и Кокандском ханствах, их природе, лечении, лекарственных средствах и людях, занимающихся врачебной профессией.

**Ключевые слова:** медицина, болезни, «ришта», проказа, чума, глазные болезни, ревматизм, оспа.